

MOLIYAVIY BOZOR STAVKALARI VA ULARDAN FOYDALANISH  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Jo'rayev Dilshodbek Komiljonovich

Termiz davlat universiteti,

Iqtisodiyot va turizm fakulteti,

Moliya va moliyaviy texnologiya ta'lif yo'nalishi 3-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12657231>

*Annotatsiya. Ushbu maqolada moliya bozori, bozor munosabatlari, bozor stavkalari va ulardan foydalanishning samarali usullari haqida, shuning bilan bir qatorda bozor infrotuzulmalari, bozor iqtisodiyoti va bozor siyosatining mamalakat iqtisodiyotiga keltirayotgan foydalari va zararlari haqida batafsil fikr yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: bozor iqtisodiyoti, bozor siyosati, bozor stavkalari, bozor infrotuzulmalalari.*

**FINANCIAL MARKET RATES AND WAYS TO INCREASE EFFICIENCY OF USING  
THEM**

*Abstract. This article discusses in detail the financial market, market relations, market rates and effective ways of using them, as well as the benefits and harms of market infrastructure, market economy and market policy to the country's economy.*

*Key words:* market economy, market policy, market rates, market infrastructure.

**СТАВКИ ФИНАНСОВОГО РЫНКА И ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ  
ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ**

*Аннотация. В данной статье подробно рассмотрен финансовый рынок, рыночные отношения, рыночные ставки и эффективные способы их использования, а также польза и вред рыночной инфраструктуры, рыночной экономики и рыночной политики для экономики страны.*

*Ключевые слова:* рыночная экономика, рыночная политика, рыночные ставки, рыночная инфраструктура.

**KIRISH**

Hozirda moliya bozori yuqori darajada tashkillashgan va uzlusiz rivojlanayotgan, borgan sari jahon miqyosida globallashib borayotgan alohida bir butun va o'z muhitiga ega munosabatlari va institutlar majmuasi sifatida namoyon bo'luvchi murakkab tizim ekanligi aniq bo'lmoqda.

Bunda moliya bozorlari nafaqat milliy iqtisodiyot, balki global iqtisodiyot rivojini belgilamoqda. Moliya bozorini, umuman olganda, quyidagicha ta'riflash mumkin: moliya bozori – bu monetizatsiyalashgan real investitsion bazisga ekvivalent moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq tashkillashgan iqtisodiy-huquqiy mexanizm bilan ta'minlangan munosabatlarni maqsadli amalga oshiruvchi, iqtisodiyot subyektlari uchun zaruriy bozor sharoitlarini yaratib beruvchi majmua sifatida namoyon bo'luvchi tizim.

Ushbu tizim mexanizmi iqtisodiyotning barcha subyektlari tomonidan ularni har birining alohida manfaatli maqsadlari doirasida harakatga keltiriladi.

Markaziy bank asosiy stavkasi - pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlaridan biri hisoblanadi.

Banklararo pul bozoridagi foiz stavkalarini, shuningdek, Markaziy bank tomonidan bank tizimiga likvidlikni taqdim etish bevosita asosiy stavkaga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, asosiy stavka iqtisodiyotdagi foiz stavkalarini darajasiga, shuningdek, aholi va biznesning iste'mol va investitsion (sarmoya kiritish) qarorlariga ta'sir ko'rsatgan holda ichki talab va inflyatsiya darajasi o'zgarishida ahamiyat kasb etadi.

Asosiy stavka darajasi Markaziy bank boshqaruvi majlislarida pul-kredit siyosati sharoitlari, joriy va kutilayotgan inflyatsiya darajasi hamda makroiqtisodiy holatni inobatga olgan holda belgilanadi. Odatda, agar inflyatsiya darajasi ko'tarilsa, Markaziy bank ham asosiy stavkani ko'taradi. Agar inflyatsiya darajasi pasaysa, bunda Markaziy bank asosiy stavkani pasaytiradi.

Markaziy bank asosiy stavkani o'zgartirishga qaror qilsa, bozorni mumkin bo'lgan o'sish yoki pasayish haqida avvaldan xabardor qiladi. O'z navbatida, tijorat banklari asosiy stavkaning traektoriyasini kuzatib, pul bozoridagi likvidlik yaqin kelajakda arzon yoki qimmatlashishini tushunadilar. Tabiiyki, bu esa, banklarni o'z mahsulotlari va xizmatlari narxlarini o'zgartirishga undaydi (masalan, aholi va tadbirkorlardan jalb etiladigan omonatlar va ularga ajratiladigan kreditlar bilan bog'liq xarajatlar).

Agar iqtisodiyotda inflyatsiya darajasining o'sish sur'ati jiddiy tezlashsa va Markaziy bank asosiy stavkani ko'tarsa, ushbu holat banklar tomonidan depozit va kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini oshirish ehtimolini yuzaga keltiradi. Bu esa, banklararo (joriy likvidlikni ta'minlash maqsadida banklar bir-birlariga pul mablag'larini ma'lum bir foiz evaziga taqdim etadigan bozor) va umuman olganda pul bozorida mablag'larni jalb etish bilan bog'liq xarajatlarni oshishiga olib keladi.

Inflyatsiya darajasi hamda asosiy stavkaning pasayishi banklararo pul bozorida pul mablag'larini jalb etish arzonlashishiga, bu esa, yuqori bo'lмаган foiz stavkalarida kreditlar ajratish orqali aholi va tadbirkorlar uchun moliyaviy manbalarning maqbullahishiga sabab bo'ladi.

Ilgari, moliya bozorlari oilalar xohlagan jamg'armalar va kompaniyalar berishi mumkin bo'lgan sarmoyalar hamda davlatlarni moliyalashtirish o'rtaida munosabatlar izlanadigan aniq joylarda sodir bo'lgan. Endi bu juda oddiy, chunki u telematik platformalar orqali amalga oshiriladi, shuning uchun ularish uchun faqat kompyuter yoki mobil qurilma kerak bo'ladi. "Moliya bozori va moliya xizmatlari sohasini yanada rivojlantirishning dolzarb muammolari va istiqbollari: milliy amaliyot va xalqaro tajriba" mavzusi oliy Majlis Senati qo'mitalari va Bank-moliya akademiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan davra suhbatida shu kabi masalalar muhokama qilindi.

Senatorlar, xorijiy va milliy ekspertlar, mutasaddi vazirlik va idoralar, tijorat banklari vakillari ishtirokida mamlakatda moliyaviy boshqaruvning yangi turlarini tafbiq etish orqali yangi ish o'rinalarini yaratish muammosi o'rtaqa tashlandi. Sohada hali natijaviy yondashuvni kutayotgan, ayniqsa, qonunchilikdagi takomilga muhtoj bo'lgan normalar talaygina. Ayniqsa, korporativ boshqaruv va moliya sohasida malakali mutaxassislarini tayyorlash, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, qimmatli qog'ozlarni sotish orqali jismoniy va yuridik shaxslarning bo'sh pul mablag'larini mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish bo'yicha ishlarni yanada jonlantirish lozim. Chunki bu kamchiliklar moliya bozori va xizmatlarini rivojlantirish bilan

bog'liq dasturlar ijrosi samaradorligini oshirish, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalg qilishga salbiy ta'sir ko'rsatyapti.

So'nggi yillarda O'zbekiston moliya bozorida qator muhim o'zgarishlar ro'y berdi, xususan, 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, fond bozori aylanmasini joriy etish orqali iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni 200 million AQSH dollaridan 7 milliard dollargacha oshirish va davlat ulushi bo'lgan tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlash, 2026-yil oxiriga qadar bank tizimi aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda. Bunda tijorat banklarida transformatsiyani jadallashtirish, subsidiyal kreditlashdan voz kechish, ularning moliyaviy vositachi sifatidagi rolini oshirish orqali davlat ulushiga ega tijorat banklarini faol ravishda zamonaviy institatlarga aylantirish ishlari ko'zda tutilgan.

Amalga oshirilayotgan bundaytadbirlar bozor iqtisodiyotining hamda moliya bozori stavkalarining yanada yaxshilanishi va ularning samaradorligini oshirish uchun xizmat qilmoqda.

### XULOSA

Moliya bozori -bu bozor moliya resurslari, ya'ni pul va pulga tenglashtirilgan qog'ozlar bozoridir va shu bilan bir qatorda, moliya tizimini ajralmas qismi hisoblanadi. Bunda oldi-sotdi qilinadi, pul mablag'larining talab va taklifga qarab, erkin harakati ta'minlanadi. Moliya bozorida firmalar, moliya muassasalari, davlat va aholi qatnashadi. Moliya bozori keng ma'noda pul bozori, kapital bozori, investitsiya bozori, qimmatli qog'ozlar bozori, valuta bozori, sug'urta bozori va boshqalami birlashtiradi.

Moliya bozorining asosiy vazifasi ishlab chiqarishni tashkil etish va kengaytirish maqsadida investorlardan pul jalg qilishdir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat organlarining tartibga solish va nazorat qilish faoliyatjisiz moliya bozorining samarali ishlashi mumkin emas.

Moliya bozorini (ayniqsa qimmatli qog'ozlar bozorini) shakllantirish sharoitida bunday tuzilmalarning ishlashi alohida ahamiyatga ega.

### REFERENCES

1. Shoxa'zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. /Darslik.-T.: «Fan va texnologiya», 2012.- 440 b.
2. Alladustov R.D., Xo,jamurodov A.J., A.N. Xamizaev Moliya bozori va birja ishi. O'quv qo'llanma. - T.: «IQTISODIYOT», 2019. - 234 bet.
3. Sh.Z Abdullayeva. Pul, kredit va banklar. Toshkent, iqtisod-moliya, 2007.
4. Amvrossov V.A. Moliya bozori va endogen iqtisodiy o'sish // Moliya biznesi.-2007.- № 5.- S. 30-35.